

XALQARO INVESTITSIYA SHARTNOMALARIDA ARBITRAJ MEXANIZMINING HUQUQIY ASOSLARI

Nurmuxammedova Farruxa Faxriddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichi talabasi

farruxanurmuxammedova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ish xalqaro investitsiya shartnomalari doirasida investorlar va davlatlar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal qilishda arbitraj mexanizmining huquqiy asoslarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda ICSID, UNCITRAL va boshqa xalqaro arbitraj institutlarining normativ asoslari, protsessual tamoyillari va ularning investitsiya nizolarini hal qilishdagi o'rni keng yoritilgan, hamda mazkur institutlar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Xalqaro investitsiya arbitraji, ICSID, UNCITRAL, arbitraj mexanizmi, xalqaro investitsiya shartnomalari

Annotation: This scientific work is devoted to the analysis of the legal foundations of the arbitration mechanism in resolving disputes between investors and states under international investment agreements. The research provides a comprehensive overview of the normative framework and procedural principles of ICSID (International Centre for Settlement of Investment Disputes), UNCITRAL (United Nations Commission on International Trade Law) arbitration rules, and other international arbitration institutions, and proposes recommendations for improving their functioning.

Keywords: International investment arbitration, ICSID, UNCITRAL, arbitration mechanism, international investment agreements.

Аннотация: Данное исследование посвящено анализу правовых основ арбитражного механизма разрешения споров между инвесторами и государствами в рамках международных инвестиционных соглашений. Рассматриваются нормативные и процессуальные основы ICSID, UNCITRAL и других международных арбитражных институтов, а также их практическая роль в разрешении инвестиционных споров. Представлены предложения по совершенствованию их деятельности.

Ключевые слова: международный инвестиционный арбитраж, ICSID, UNCITRAL, арбитражный механизм, инвестиционные соглашения

An'anaviy xalqaro huquq amaliyotida faqat suveren davlatlar o'rtasidagi nizolar hal etilgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan ushbu yondashuv sezilarli darajada kengaydi. Xususan, xalqaro investitsiya huquqining shakllanishi va rivojlanishi natijasida endilikda nizolar nafaqat davlatlar o'rtasida, balki davlat va investitsiya faoliyatini yuritayotgan jismoniy yoki yuridik shaxslar o'rtasida ham vujudga kelmoqda. Bu holat investitsion munosabatlarning va xususiy investorlarning xalqaro maydondagi faolligining ortishi, shuningdek ularning huquqiy maqomini mustahkamlash zaruriyati bilan bog'liq bo'lib, investorlar tomonidan mezbon davlatlarga nisbatan bevosita da'vo qo'zg'atish masalasini xalqaro huquq doirasida dolzarb muammo sifatida ko'rsatmoqda. Odatdagi xalqaro huquqqa ko'ra, xorijiy investor nizo yuzaga kelganda, avvalo mezbon davlatning sudlariga murojaat qilishi shart. Agar mezbon davlat sudlari nizoni hal qilishda muvaffaqiyatsiz bo'lsa yoki samarasiz deb topilsa — ularning mazmunan asosli huquqiy himoya choralariga, samarali ijro mexanizmlariga ega yoki ega emasligidan qat'i nazar, yoxud bu holat "refusal of justice" natijasi bo'lsa ya'ni xorijiy investor mezbon davlatning sudlarida adolatli, xolis va samarali huquqiy himoyaga ega bo'lmasa— unda investor o'zining fuqaroligi bo'yicha tegishli bo'lgan davlatdan diplomatik himoya so'rashi mumkin¹. Investitsiya nizolarini hal qilish amaliyoti tahlil qilinganda, bu sohadagi huquqiy mexanizmlar o'z mohiyatiga ko'ra aralash xarakterga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, ular xalqaro huquq normalari bilan milliy huquq normalari o'rtasida joylashgan murakkab tizimni ifodalaydi. Bunday holatda mezbon davlat xalqaro huquq asosida majburiyatlarga ega bo'lgan subyekt sifatida maydonga chiqadi, shu bilan birga u milliy huquq doirasida faoliyat yuritayotgan va o'z davlati qonunlariga bo'ysunuvchi xususiy investor bilan huquqiy munosabatga kiradi. Investitsiyaviy nizolarni hal etish tarixiga nazar tashlasak, qadim zamonlardan oq mojarolarni tinch yo'l bilan bartaraf etish usullari mavjud bo'lgan. Xususan, qadimgi Yunonistonda shahar-davlatlar o'rtasidagi nizolarni arbitraj yo'li bilan hal qilish amaliyoti keng qo'llanilgan. Vaqt o'tishi bilan nizolarni tinch yo'l bilan hal etish masalasi rivojlandi, ayniqsa investitsiya sohasida bu yo'nalish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, nizo ishtirokchilarining tabiati va huquqiy maqomiga bog'liq bo'ldi. Mazkur yondashuvning asosida esa xalqaro huquqda urf-odat normalaridan kelib chiqqan "nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish prinsipi" yotadi. Bu prinsipning asosiy vazifasi xalqaro nizolarni zo'ravonliksiz, huquqiy tartibda, tinch yo'l bilan hal etish

¹ I. Braunli, Principles of Public International Law, Klarendon Press, 1998-yil, XXII-bob; keltirilgan: Investor-davlat nizolarini hal qilish, UNCTADning "Xalqaro investitsiya shartnomalari bo'yicha masalalar" turkumidagi nashri, 4-bet.

tartiblarini belgilashdan iboratdir². Vaqt o'tishi bilan investitsion nizolarni hal etishga doir institutsional mexanizm sezilarli darajada rivojlandi, bu sohada maxsus huquqiy normalar shakllanib, ma'lum darajada sud amaliyoti ham vujudga keldi. So'nggi yillarda xalqaro investitsiya arbitrajari doirasida qabul qilingan qarorlar o'ziga xos murakkab tuzilishga ega bo'lib, ular yuzlab, ba'zan minglab bandlardan tashkil topgan. Bunday arbitraj ishlari bo'yicha da'volar miqdori ham sezilarli darajada oshib bormoqda. Bunga yorqin misol sifatida 2014-yil 18-iyulda UNCITRAL qoidalari asosida, Gagadagi Doimiy Arbitraj Sudi (PCA) tomonidan ko'rilgan Hulley Enterprises Ltd, Yukos Universal Ltd va Veteran Petroleum Ltd v. Rossiya Federatsiyasi ishi keltiriladi. Bu ishda Rossiya Federatsiyasi tomonidan Energetika Xartiyasi shartlari buzilgan deb topilgan va Yukos kompaniyasi aksiyadorlariga 50 milliard AQSh dollaridan ortiq miqdorda tovon puli to'lash majburiyati yuklatilgan³.

Xalqaro investitsiya nizolarini hal etish markazi (ICSID): Xalqaro investitsiya nizolarini hal etish markazi (ICSID) 1965-yil 18-mart kuni Vashingtonda imzolangan "Davlatlar va boshqa davlatlarning fuqarolari o'rtasidagi investitsiya nizolarini hal etish to'g'risida"gi konvensiya asosida tashkil etilgan bo'lib, 1966-yil 14-oktabrda kuchga kirgan⁴. Ushbu konvensiya Jahon bankining tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va ICSID hozirda Jahon banki guruhining beshta tashkilotidan biri sifatida faoliyat yuritmoqda:

- Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (IBRD),
- Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (IDA),
- Xalqaro moliyaviy korporatsiya (IFC),
- Ko'p tomonlama investitsiyalarni kafolatlash agentligi (MIGA)⁵.

ICSIDning asosiy maqsadi — xorijiy investorlar bilan investitsiya qabul qiluvchi davlatlar o'rtasida yuzaga keladigan investitsiya nizolarini xolis, tezkor va huquqiy asosda hal etish uchun arbitraj va murosaga keltirish (conciliation) mexanizmlarini taqdim etishdan iborat. ICSID o'z faoliyatini quyidagi asosiy organlar orqali amalga oshiradi:

Bosh direktorlar kengashi – barcha ishtirokchi davlatlar tomonidan vakil tarzida shakllantiriladi;

² Lungu, M., Xalqaro mojarolarni tinch yo'l bilan hal etishda xalqaro tashkilotlarning roli, Universal Juridic nashriyoti, Buxarest, 2010, 12–13-betlar.

³ PCA (Permanent Court of Arbitration). Decision of 18 July 2014 in the Yukos Case. Accessed May 12, 2018. <https://www.pcacases.com/web/sendAttach/418>

⁴ ICSID Convention, 1965. Article 1. URL: <https://icsid.worldbank.org/resources/rules-and-regulations/convention>

⁵ World Bank Group. "Who We Are." URL: <https://www.worldbank.org/en/who-we-are>

Kotibiyat – ICSIDning kundalik ishlarini boshqaruvchi ijro organi bo‘lib, unga Bosh kotib va uning ikki o‘rinbosari rahbarlik qiladi⁶.

ICSID arbitrajiga murojaat qilish tartibi bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

1. Yozma so‘rov yuborish (Request for Arbitration) – investor markaz Kotibiyatiga da’vo mazmunini bayon etgan holda murojaat qiladi.

2. Vakolatni tekshirish – ICSID Konvensiyasining 25-moddasiga asosan, nizo ICSID yurisdiksiyasiga kirish yoki kirmasligi aniqlanadi.

3. Tribunalni shakllantirish – har bir taraf tomonidan bittadan arbitr, uchinchi arbitr (rais) esa tomonlarning kelishuviga binoan tayinlanadi.

4. Sud jarayoni – yozma bayonotlar, eshituvlar, bahslar bosqichi.

5. Qaror chiqarish – ICSID qarori majburiy hisoblanadi va konvensiya asosida faqat ayrim hollarda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin⁷.

ICSID faqat quyidagi shartlar asosida ish yuritadi:

- Nizo ishtirokchilari (investor va davlat) turli ishtirokchi davlatlarga tegishli bo‘lishi kerak;

- Nizo investitsiya faoliyati bilan bog‘liq bo‘lishi lozim;

- Har ikki tomon ICSID yurisdiksiyasiga yozma rozilik bildirgan bo‘lishi zarur⁸.

ICSID nafaqat o‘zining qoidalari asosida, balki UNCITRAL arbitraj qoidalari yoki ad hoc arbitraj shaklida bo‘ladigan nizolarni ham ko‘rib chiqadi. Shuningdek, markaz investitsiya nizolari bo‘yicha vositachilik (mediation) xizmatlarini ham taklif etadi. Hozirda ICSID konvensiyasiga 163 ta a‘zo hisoblanadi, ularning 154 tasi to‘laqonli ishtirokchi davlat (Contracting state) maqomiga ega⁹. Boshqacha aytganda mazkur 154 ta davlat ICSID konvensiyasini ratifikatsiya qilgan va ICSID arbitraj yurisdiksiyasini tan olgan. ICSID faoliyatini Kotibiyat (Secretariat) boshqaradi. ICSID konvensiyasining 9–11-moddalariga muvofiq, Kotibiyatga Bosh kotib rahbarlik qiladi va unga ikki nafar o‘rinbosar yordam beradi, ular markazning kundalik ishlari, jumladan, arbitraj jarayonlari, ish yuritish, taraflar bilan aloqalar va moliyaviy nazoratni amalga oshiradi. Arbitraj Bosh kotibga yozma so‘rov (Request for arbitration) yuborish orqali boshlanadi. Unda asosiy faktlar va huquqiy asoslar keltiriladi. So‘rov markaz vakolat doirasiga kirsam, 3 hafta ichida ko‘rib chiqiladi. Keyingi bosqich — arbitraj tribunalini tuzishdir. Tribunal odatda:

⁶ ICSID Convention, 1965. Articles 6–11.

⁷ ICSID Rules of Procedure for Arbitration Proceedings. URL: <https://icsid.worldbank.org/resources/rules-and-regulations>

⁸ ICSID Convention, 1965. Article 25.

⁹ ICSID. “Database of Member States.” International Centre for Settlement of Investment Disputes (ICSID). URL: <https://icsid.worldbank.org/en/Pages/about/Database-of-Member-States.aspx>

- da'vogar tomonidan tayinlangan bitta arbitr,
- javobgar tomonidan tayinlangan bitta arbitr,
- tomonlar o'zaro kelishib tayinlangan yoki markaz tomonidan tayinlangan rais arbitrdan iborat bo'ladi¹⁰. ICSID arbitrajining muhim jihati — uning qarori majburiy hisoblanadi va faqat Konvensiyada ko'rsatilgan hollarda bekor qilish, izoh berish yoki tuzatish uchun qayta ko'rib chiqilishi mumkin (ICSID Konvensiyasi, modda 52). Shuningdek, ICSID faqat ishtirokchi davlat (yoki davlatga tegishli organ) bilan boshqa ishtirokchi davlat fuqarosi (yoki yuridik shaxs) o'rtasida har ikki tomon yozma rozilik bergan bo'lsa, nizoni ko'rib chiqishi mumkin.

ICSID har yili Bosh direktorlar kengashiga o'z faoliyati bo'yicha yillik hisobot taqdim etadi.

2017-yilgi hisoboti asosida:

- ICSID umumjahon miqyosida investor-davlat arbitrajining yetakchi instituti sifatida tan olingan;
- Barcha xalqaro investitsiya ishlarining 70% dan ortig'i ICSID tomonidan ko'rib chiqilgan;
- 2017-yilda ICSID 343 ishni yuritgan — bu markaz tarixidagi eng yuqori ko'rsatkich edi¹¹.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro Savdo huquqi bo'yicha komissiyasi (UNCITRAL) : UNCITRAL Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro savdo huquqi bo'yicha asosiy huquqiy organidir. Agar nizolashayotgan tomonlar arbitraj instituti doirasidan tashqarida, ad hoc arbitraj orqali ya'ni muayyan arbitraj instituti yoki doimiy arbitraj sudi tarkibiga kirmagan, balki nizolashayotgan tomonlar o'zaro kelishuv asosida, vaqtincha tashkil qilinadigan arbitraj orqali nizoni hal qilishga kelishsa, bu holatda ular protsessual qoidalarni o'zlari belgilash huquqiga ega bo'ladi. Bunday qoidalar odatda UNCITRAL tomonidan ishlab chiqilgan bo'ladi. Aynan shu tamoyil – tomonlar irodasining mustaqilligi – xalqaro arbitrajdagi asosiy prinsiplardan biri hisoblanadi. UNCITRAL tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar bir nechta xalqaro arbitraj tribunalari tomonidan qabul qilinib, ularning qoidalari bilan muvofiqlashtirilgan. Shuning uchun ko'plab arbitraj institutlari investitsiya nizolarini o'z protseduralari asosida hal qilgan bo'lsa-da, tomonlar talabiga binoan UNCITRALning Arbitraj yoki Murosaga keltirish (Conciliation) qoidalari ham qo'llaniladi¹². 1976-yilda UNCITRAL Arbitraj qoidalarini (Rules of Procedure) qabul qilgan, 1985-yilda esa xalqaro investitsiya

¹⁰ ICSID Rules of Procedure for Arbitration Proceedings. Rule 5.

¹¹ ICSID Annual Report 2017. URL: <https://icsid.worldbank.org/resources/publications/annual-reports>

¹² UNCITRAL. UNCITRAL Arbitration Rules (1976). Revised edition 2010. URL: <https://uncitral.un.org/en/texts/arbitration>

arbitraji uchun namunaviy qoidalarni ishlab chiqilgan va mazkur qonun 2006-yilda muhim o'zgartirishlar bilan yangilanga¹³. UNCITRAL arbitraj qoidalariga binoan, arbitrajga rozilik yozma shaklda bildirilishi shart. Bu esa 1958-yilda qabul qilingan Nyu-York konvensiyasi asosida arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etishni kafolatlash uchun zarurdir. UNCITRAL Kotibiyati o'z faoliyati natijasida ishlab chiqilgan konvensiyalar va namunaviy qonunlar asosida xalqaro sud qarorlari va arbitraj qarorlarini to'plash va tarqatish tizimini yo'lga qo'ygan. Bu tizimning maqsadi – UNCITRAL tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy matnlarning xalqaro darajada tan olinishi, izchil talqin qilinishi va bir xilda qo'llanilishini ta'minlashdan iborat.

Xalqaro investitsiya arbitrajidagi eng jiddiy huquqiy muammolardan biri – bu rasmiy pretsedent (ya'ni *stare decisis*) tizimining mavjud emasligidir. Bu jihat milliy huquqiy tizimlar (ayniqsa, anglo-sakson huquqi) yoki doimiy xalqaro sudlar (masalan, International court of justice yoki the European Court of Human Rights) faoliyatidan keskin farq qiladi. Investitsiya arbitraj tribunallari ad hoc tarzda shakllantiriladi va faqat aniq bir nizo bo'yicha tegishli shartnoma yoki bitimni sharhlash bilan cheklanadi. Natijada, tribunal bir xil yoki o'xshash shartnoma normalarini har xil talqin qilishi mumkin va bu hol arbitraj amaliyotining izchil emasligiga olib kelmoqda. Masalan,

1) Adolatli va teng munosabat (FET – Fair and Equitable Treatment)

FET bandi ikki tomonlama investitsiya bitimlarida eng ko'p tortishuvlarga sabab bo'luvchi norma hisoblanadi. Tecmed v. Mexico (ICSID, 2003) ishida tribunal FETni keng talqin qilib, unga shaffoflik, qonuniy kutishlar (*legitimate expectations*) tamoyillarini kiritgan¹⁴. Biroq Glamis Gold v. USA (UNCITRAL, 2009) ishida tribunal bu tamoyilni ancha tor doirada, faqat "shafqatsiz" yoki "g'ayriinsoniy" harakatlarga qarshi qo'llaniladigan xalqaro odat huquqi me'yorlari asosida sharhlagan¹⁵.

2) Eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejim (MFN – Most-Favoured-Nation)

Maffezini v. Spain (ICSID, 2000)¹⁶ ishida tribunal MFN bandi orqali investorning boshqa bitimlardagi qulay protsessual huquqlarni talab qilishini tan oldi. Plama v. Bulgaria (ICSID, 2005)¹⁷ ishida esa tribunal bunday yondashuvni rad

¹³ UNCITRAL. UNCITRAL Arbitration Rules (1976). Revised edition 2010. URL:

<https://uncitral.un.org/en/texts/arbitration>

¹⁴ Tecnicas Medioambientales Tecmed S.A. v. The United Mexican States, ICSID Case No. ARB(AF)/00/2, Award, 29 May 2003.

¹⁵ Glamis Gold, Ltd. v. The United States of America, UNCITRAL, Award, 8 June 2009

¹⁶ Emilio Agustín Maffezini v. The Kingdom of Spain, ICSID Case No. ARB/97/7, Decision on Jurisdiction, 25 January 2000.

¹⁷ Plama Consortium Limited v. Republic of Bulgaria, ICSID Case No. ARB/03/24, Decision on Jurisdiction, 8 February 2005.

etib, MFN bandi protsessual normalarga nisbatan faqat aniq belgilangan bo'lsa, qo'llanilishi mumkinligini ta'kidladi.

3) Investitsiya tushunchasining ta'rifi

ICSID tizimi doirasida (Salini v. Morocco, 2001) ishida xalqaro arbitraj tribunalari investitsiya sifatida tan olinishi uchun to'rt mezonni shakllantirgan bo'lib, bu mezonlar keyinchalik "Salini testi" deb nom oldi. Ushbu to'rt mezon quyidagilardan iborat:

- Moliyaviy yoki moddiy hissaning mavjudligi

Investor mezbon davlatda ma'lum miqdorda kapital, texnologiya yoki boshqa resurslar bilan ishtirok etgan bo'lishi kerak. Masalan, Germaniyalik investor O'zbekiston hududida 10 million dollarlik zavod qurishga investitsiya kiritgan, zamonaviy texnologiyalar, mutaxassislarni olib kirgan, bu esa moliyaviy hissani ifodalaydi.

- Ma'lum vaqt davomida amalga oshirilishi

Investitsiya bir martalik emas, balki uzluksiz yoki uzoq muddatli loyihani o'z ichiga olishi lozim. ICSID arbitraj amaliyotida odatda kamida 2–5 yil yoki undan ortiq muddatda davom etuvchi faoliyat investitsiya sifatida tan olinadi. Masalan, Fransuz kompaniyasi 10 yil davomida Toshkent shahrida avtomobil yig'ish liniyasini ishlab chiqadi va boshqaradi, ya'ni mazkur loyiha davomiy hisoblanadi.

- Xavf (risk) elementining mavjudligi

Investor o'z kapitalini yo'qotish xavfi ostida bo'ladi, ya'ni uning daromadlari kafolatlanmagan bo'ladi. Xavf – siyosiy, iqtisodiy yoki huquqiy noaniqliklardan kelib chiqishi mumkin. Kanadaning "First Quantum Minerals" kompaniyasi Kongo Demokratik Respublikasida mis koni qazib olish loyhasini boshlaydi. Kutilmaganda hukumat tomonidan litsenziya bekor qilinadi. Kompaniya o'z sarmoyasini yo'qotadi va ICSIDga murojaat qiladi. Bu holat Metalclad v. Mexico ishida ham uchragan¹⁸: investor ruxsat olishiga qaramay, mahalliy hokimiyat tomonidan loyihaning bekor qilinishi katta xavf sifatida baholangan.

- Davlatning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shish

Investitsiya mezbon davlatga foyda olib kelishi, xususan, ish o'rinlari yaratishi, texnologiyalarni joriy etishi yoki infratuzilmani yaxshilashi kerak. Bu iqtisodiy va ijtimoiy hissa mezonini qanoatlantiradi. Ba'zi tribunallar yuqoridagi mezonlarni (Salini testini) qat'iy emas, balki moslashuvchan mezonlar sifatida qabul qilgan. Ular, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar bilan bog'liq nizolarda bu yondashuvni

¹⁸ Tecmed v. Mexico, ICSID Case No. ARB(AF)/00/2, Award, 29 May 2003.

qo‘llagan. Masalan, *Biwater Gauff v. Tanzania* (ICSID, 2008) ¹⁹ishida tribunal shunday xulosa qilgan: investitsiyaning davlat rivojiga qo‘shgan hissasini alohida isbotlash shart emas, chunki bu hissa odatda har qanday yirik infratuzilmaviy loyihada mavjud bo‘ladi. *Romak v. Uzbekistan* (PCA, 2009)²⁰ ishidagi tribunal esa Salini mezonlarini ICSID Konvensiyasi doirasida zarur emas, deb hisoblab, uning o‘rniga boshqa huquqiy mezonlarga tayangan. Mazkur holatlar shuni ko‘rsatadiki, arbitraj tribunallari Salini testini universallikdan ko‘ra ko‘proq vaziyatga moslashtirib ko‘rib chiqmoqda. Turli tribunal qarorlarida bu testning ijodiy talqinlari mavjud: ba’zilar to‘rt mezonni birgalikda talab qilsa, boshqalari xolis va mantiqiy baholashga asoslangan yondashuvni afzal biladi. Bu yondashuv esa, investitsiya arbitrajida huquqiy noaniqlikni kuchaytirmoqda. Buning natijasida, investorlarda ham, davlatlarda ham tribunal muayyan normalarni qanday talqin qilishi haqida oldindan aniq tasavvur bo‘lmaydi va o‘z navbatida arbitraj tizimining ishonchliligiga putur yetkazadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qiladigan bo‘lsak, mazkur holat yuzasidan vujudga kelayotgan muammolarni hal qilish uchun quyidagi taklifni ilgari surishimiz mumkin:

ICSID Konvensiyasiga qo‘shimcha o‘zgartirish kiritish (konvensiya darajasida islohot):

ICSID Konvensiyasining 52–53-moddalarini qayta ko‘rib chiqish va mazkur moddaga quyidagicha o‘zgartirish kiritish taklif etiladi. Yangi moddada:

- faqat protsessual xatolarga emas, balki huquqiy talqin xatolariga ham taalluqli bo‘ladi;
- ishtirokchi davlatlar bu protokolga alohida qo‘shilishi orqali o‘z investorlari uchun bu imtiyozni kafolatlay oladi. 2022-yilgi ICSID islohoti doirasida bu fikr bir necha ekspertlar tomonidan ilgari surilgan bo‘lsa-da, hali amaliyotga tatbiq etilmagan.

ICSID Konvensiyasi, 52-moddasida arbitraj qarorini bekor qilish uchun murojaat qilish tartibi belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unga ko‘ra:

1. Har qanday tomon quyidagi asoslardan biriga yoki bir nechtasiga tayanib, yozma ariza orqali Bosh kotibga murojaat etish yo‘li bilan arbitraj qarorini bekor qilishni so‘rashi mumkin:

- a) Tribunal to‘g‘ri tashkil etilmagan bo‘lsa;
- b) Tribunal o‘z vakolatlarini oshirib yuborgan bo‘lsa;
- c) Tribunal a‘zolaridan biri tomonidan korrupsiya sodir etilgan bo‘lsa;

¹⁹ *Biwater Gauff (Tanzania) Ltd. v. United Republic of Tanzania*, ICSID Case No. ARB/05/22, Award, 24 July 2008, paras. 312–318.

²⁰ *Romak S.A. v. Republic of Uzbekistan*, PCA Case No. AA280, Award, 26 November 2009.

d) Muhim protsessual qoida jiddiy ravishda buzilgan bo'lsa;

e) Qarorda asoslantiruvchi sabablar ko'rsatilmagan bo'lsa.

Bu esa, faqat protsessual va institutsional xatolarni qamrab oladi, lekin huquqiy talqin xatolarini qamrab olmaydi. Mazkur moddaga qarorni bekor qilish asoslariga "huquqning notog'ri talqin qilinishi yoki qo'llanishi" kabi jummalarni kiritishimiz mumkin. Bu orqali investorlar yoki davlat agar tribunal chiqargan yakuniy qaror (award) dan norozi bo'lsalar, unda huquqning noto'g'ri qo'llanishi yuzasidan bosh kotibga yozma ariza orqali murojaat qilishga huquqiga ega bo'ladilar. Mazkur islohot orqali xorijiy investorlarning va davlatlarning arbitraj institutiga bo'lgan ishonchini oshirishimiz mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I. Braunli, Principles of Public International Law, Klarendon Press, 1998-yil, XXII-bob; keltirilgan: Investor-davlat nizolarini hal qilish, UNCTADning "Xalqaro investitsiya shartnomalari bo'yicha masalalar" turkumidagi nashri, 4-bet.
2. Lungu, M., Xalqaro mojarolarni tinch yo'l bilan hal etishda xalqaro tashkilotlarning roli, Universal Juridic nashriyoti, Buxarest, 2010, 12–13-betlar.
3. UNCITRAL. UNCITRAL Arbitration Rules (1976). Revised edition 2010.
4. ICSID Convention, 1965. Article 25.
5. Tecnicas Medioambientales Tecmed S.A. v. The United Mexican States, ICSID Case No. ARB(AF)/00/2, Award, 29 May 2003.
6. Glamis Gold, Ltd. v. The United States of America, UNCITRAL, Award, 8 June 2009
7. Emilio Agustín Maffezini v. The Kingdom of Spain, ICSID Case No. ARB/97/7, Decision on Jurisdiction, 25 January 2000.
8. Plama Consortium Limited v. Republic of Bulgaria, ICSID Case No. ARB/03/24, Decision on Jurisdiction, 8 February 2005.
9. PCA (Permanent Court of Arbitration). Decision of 18 July 2014 in the Yukos Case. Accessed May 12, 2018. <https://www.pcacases.com/web/sendAttach/418>
10. World Bank Group. "Who We Are." URL: <https://www.worldbank.org/en/who-we-are>
11. ICSID Annual Report 2017. URL: <https://icsid.worldbank.org/resources/publications/annual-reports>
12. ICSID. "Database of Member States." International Centre for Settlement of Investment Disputes (ICSID). URL: <https://icsid.worldbank.org/en/Pages/about/Database-of-Member-States.aspx>